



Analysis of legislation on the plant world: on the example of the experience of the Republic of Uzbekistan and the Federal Republic of Germany

Durbek MAKHKAMOV¹

Tashkent state university of law

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2021

Received in revised form

28 March 2022

Accepted 20 April 2022

Available online

15 May 2022

Keywords:

flora,

forest,

legal protection of plants in

Germany,

criminal liability,

administrative liability.

ABSTRACT

This article describes the essence of the legislation on the flora, the legal system formed on the basis of concepts, achievements and existing problems. A comparative legal analysis of legal acts regulating the flora of the Republic of Uzbekistan and the Federal Republic of Germany was carried out. At the same time, important aspects of the legislation of both countries were discussed, as well as possible achievements. The international experience and its influence on national legislation are listed. Theoretical views on the issues of responsibility for causing harm to objects of the plant world, various scientific views have been studied.

As a result of the article, issues of improving existing legal mechanisms, determining directions based on current trends were discussed.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp556-562>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O‘simlik dunyosiga oid qonunchilik tahlili: O‘zbekiston va Germaniya tajribasi misolida

АННОТАЦИЯ

Калит сўзлар:

flora,

o‘simlik dunyosi,

o‘rmon,

Germaniyada o‘simliklarning

huquqiy muhofazasi,

jinoiy javobgarlik,

ma‘muriy javobgarlik.

Mazkur maqolada o‘simlik dunyosiga oid qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati, konsepsiyalar asosida shakllangan huquqiy tizim, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar to‘g‘risida fikrlar bayon qilingan. O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasining o‘simlik dunyosi ob‘ektlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning qiyosiy-huquqiy tahlili amalga oshirildi. Bunda har

¹ Ph.D. Assistant professor, Tashkent state university of law. E-mail: durbek404@mail.ru.

ikkala davlat qonunchiligining muhim jihatlari, tadbiri qilish mumkin bo'lgan yutuqlari to'g'risida mulohaza yuritildi. Xalqaro tajriba va uning milliy qonunchilikka ta'siri sanab o'tildi. O'simlik dunyosi ob'ektlariga zarar yetkazganlik uchun yuzaga keladigan javobgarlik masalalari bo'yicha nazariy fikrlar, turli ilmiy qarashlar o'rganildi. Maqola natijasi sifatida mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, zamonaviy tendensiyalar asosida yo'nalishlarni belgilash masalalariga to'xtalib o'tildi.

Анализ законодательства о растительном мире: на примере опыта Республики Узбекистан и Федеративной Республики Германии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

флора,
растительный мир,
лес,
правовая охрана растений
в Германии,
уголовная
ответственность,
административная
ответственность.

В данной статье описаны сущность законодательства о растительном мире, правовая система, сформированная на основе понятий, достижения и существующие проблемы. Проведен сравнительно-правовой анализ нормативно-правовых актов, регламентирующих растительный мир Республики Узбекистан и Федеративной Республики Германии. При этом обсуждались важные аспекты законодательства обеих стран, а также возможные достижения. Перечислен международный опыт и его влияние на национальное законодательство. Изучены теоретические взгляды на вопросы ответственности за причинение вреда объектам растительного мира, различные научные взгляды.

В результате статьи были обсуждены вопросы совершенствования действующих правовых механизмов, определения направлений на основе современных тенденций.

Dunyo bo'yicha har soatda o'simliklarning bir turi yo'qolib bormoqda. Kishilar tabiatdan foydalanib, uning asrlar davomida tashkil topgan tabiiy manzarasini o'zgartirib, unga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada o'simlik turlarining kamayib ketish xavfi tug'ilmoqda. Har qanday turning yo'qolishi esa uni tiklab bo'lmaydigan oqibatlariga olib keladi.

Shu sababli ham mamlakatimiz Prezidenti rahbarligida 2018-yil 2-fevral kuni ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Mazkur yig'ilishda o'tgan yili (2017) hayvonot va o'simlik dunyosi bo'yicha 3 ming 782 ta huquqbuzarlik va brakonerlik holatlari aniqlangan. 8 ta davlat qo'riqxonasidan 6 tasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasida, 2 tasi Geologiya va Ekologiya qo'mitalari tasarrufida bo'lib, ularni boshqarishda yagona tizim mavjud emas. Shu bois, qo'riqxonalarni yagona davlat organiga birlashtirish masalasini o'rganib, asosli takliflar ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi [1].

Modomiki shunday ekan, ushbu tabiat ob'ektini muhofaza qilishda davlat boshqaruv organlarining o'rni nihoyatda muhimligi va o'z zimmasiga yuklatilgan

vazifalarga nisbatan ulkan mas'uliyat bilan yondashish lozimligini ko'rsatadi. Aynan ekologiya sohasida davlat boshqaruvi davlat ekologik funksiyasining tarkibiy qismini tashkil etadi [2].

Sh.X.Fayziev har qanday davlatning ekologik siyosati atrof tabiiy muhit sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati bilan chambarchas bog'liqligini hamda ekologik siyosat ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi va nazoratining tizimli ifodasi ekanligini ta'kidlaydi [3].

O'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi deganda, vakolatli davlat boshqaruv organlarining normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan o'simlik dunyosi ob'ektlarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan faoliyatini tushunamiz.

O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun 2016-yilda yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur qonun avvalgi tahrirdagi bir nechta jihatlari, yangicha yondashuvlar bilan farq qiladi.

Ayniqsa, davlat boshqaruvi, o'simlik dunyosiga nisbatan mulkchilik, foydalanish tartibi, muhofaza qilish choralari kabi munosabatlar o'ziga xos tarzda bayon qilingan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida ham biologik himmaxillikning bir turi sifatida o'simlik dunyosi muhofazasi belgilangan.

Aytish mumkiki, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonundagi aksariat normalar romano-german huquq tizimiga mansub bo'lgan davlatlarning qonunlaridagi ayrim normalar mazmuniga o'xshash. Biroq javobgarlik nazarda tutilgan normalarda hali hanuz takomillashtirish lozim bo'lgan jihatlari mavjud bo'lib, ilg'or xorijiy tajribadan foydalanishni taqozo etadi.

Jumladan, Germaniya davlatining o'simlik dunyosiga oid qonunchilik hujjatlari bilan tanishgan holda ayrim tahlillarni amalga oshirish imkoni mavjud.

Germaniya [4] va boshqa qator yevropa davlatlari jinoyat kodekslarida [5] mavjud jinoiy-huquqiy ta'qiqlar tahlili milliy qonunchilikning o'simlik dunyosi (flora)ni muhofaza qilish masalasiga jinoyat to'g'risidagi qonunlar vositalari yordamida ko'proq e'tibor qaratayotganini ko'rsatdi. O'tgan asrning oxirida ko'pgina davlatlarda jinoiy-ekologik qonunchilik islohoti o'tkazildi yoki atrof-muxitga qarshi jinoyatlar to'g'risida maxsus boblar shakllantirildi, moddalar ta'rifi chuqur o'zgartirildi yoki sanksiyalar kuchaytirildi. Islohotlarning asosiy natijalari (ayrim istisnolarni nazarda tutmaganda) o'simlik dunyosini sun'iy lashtirishdan saqlash, xavfli moddalar va chiqindilar bilan muomala qilish tartibini buzish, atrof-muxitni ifloslantirish kabi zamonaviy sharoitlarda katta ijtimoiy xavf sanaladigan holatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilash va kuchaytirishda namoyon bo'ldi [6].

E'tiborlisi, Yevropa davlatlarida o'simlik tushunchasi o'rmon tushunasi bilan hamohang. Shu sababli ham o'rmon tajovuz ob'ekti sifatida Germaniya, Latviya va boshqa mamlakatlar jinoyat kodeksida qayd qilingan. Masalan, Germaniya JK 329-moddasining 5-qismida alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardagi o'rmonlarda ildiz, to'nka kavlash uchun javobgarlik belgilangan. Latviya JKda ham bir qator ta'qiqlar nazarda tutilgan. Ular orasidan ayrimlarini misol keltiramiz. "Yer, uning boyliklari, suv va o'rmonlarni boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish" moddasiga ko'ra, yer, uning boyliklari, suv va o'rmonlarni boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish jinoiy javobgarlikka tortish uchun sabab bo'ladi, agar bu harakatlar orqali tabiiy muxit, odamlar salomatligi, mulkiy va xo'jalik manfaatlariga katta zarar yetkazilsa, uch yilgacha

muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki majburiy ishlarga jalb qilish yoki eng kam oylik ish haqining oltmish baravari miqdorida jarima jazosi qo'llaniladi. Kodeksning "Yer, o'rmonlar va suvni ifloslantirish" nomli 102-moddasi 1-qismiga ko'ra, yer, o'rmonlar yoki ichki (yer usti va yer osti) suvlarni ifloslantirish yoki ularga boshqa har qanday usulda zarar yetkazish, bir yil mobaynida takroran sodir etilsa, ikki yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq yoki majburiy ishlatish yoki eng kam oylik ish haqining qirq baravarigacha miqdorda jarima jazosi qo'llaniladi; moddaning 2-qismiga ko'ra, yer, o'rmonlar yoki ichki (yer usti va yer osti) suvlarni ifloslantirish yoki ularga boshqa har qanday usulda zarar yetkazish tabiiy muxit, odamlar salomatligi, mulk va xo'jalik manfaatlariga jiddiy zarar keltirsa, to'rt yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki eng kam oylik ish haqining sakson baravarigacha miqdorida jarima tayinlash bilan jazolanadi. 107-moddada qasddan o'rmonga o't qo'yish uchun besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan, xuddi shu harakatlar jiddiy zararga yoki aybdorning ehtiyotsizligi orqasidan odam o'limiga sabab bo'lsa yoki boshqa og'ir oqibatlarni keltirib chiqarsa, 15 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi, lekin ehtiyotsizlik orqasidan, olovdan noto'g'ri foydalanish yoki boshqa natijasida o'rmon uchastkasini nobud qilish yoki unga zarar yetkazish uchun to'rt yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki eng kam oylik ish haqining sakson baravarigacha miqdorida jarima tayinlanadi, vaholanki, 2-qismda xuddi shu harakatlar odam o'limiga sabab bo'lsa yoki boshqa og'ir asoratlarga olib kelsa, olti yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki eng kam oylik ish haqining bir yuz yigirma baravarigacha miqdorda jarima belgilash nazarda tutilgan.

Masalan, Germaniya Jinoyat kodeksining 326-moddasida (Xavfli chiqindilar bilan ruxsatsiz muomala qilish [7]) turi, xususiyati va miqdoriga ko'ra yoki ekspluatatsiyaning belgilangan yoki ruxsat berilgan jarayonlaridan sezilarli darajada chetlashish natijasida, shu chiqindilar uchun mo'ljallangan uskuna chegarasidan tashqaridagi hayvonlar va o'simliklarning miqdoriy ko'rsatkichiga xavf tug'diradigan chiqindilarni qayta ishlash, joylashtirish, saqlash, tashish bilan shug'ullanadigan shaxslarning javobgarlikka tortiladigan noqonuniy harakatlarini tavsiflaydi. Bu ta'qiqlarning buzilishi besh yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi. E'tiborlisi, 329-modda ("Muhofazaga muhtoj hududga tahdid")si juda murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning 3-xatboshisi 5,7-kichik bandlarida shunday ko'rsatilgan:

(3) Kim qo'riqxonaga, qo'riqxonaga sifatida muhofaza qilinadigan hududlar yoki milliy bog' muhofazasi uchun shakllantirilgan huquqiy qoidalarni yoki rioya qilish shart bo'lgan ta'qiqlarni:

(5) o'rmondagi ildizlar va to'nkalarni qo'porish;

(7) tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi Federal Qonunga ko'ra, alohida qo'riqlanadigan o'simlik turlariga zarar yetkazish yoki nobud qilish orqali buzsa, besh yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki pul jarimasi bilan jazonalanadi.

Misol sifatida ham jinoiy, ham ma'muriy javobgarlik choralarni nazarda tutgan Germaniyaning o'simliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunini keltirish mumkin.

Ushbu Qonunning 39-moddasida shunday deyiladi: "Zararli organizmlarni tarqatish orqali, tabiatni muhofaza qilish to'g'risida nazarda tutilgan alohida muhofaza qilinadigan o'simliklar, muxim ahamiyatga ega begona o'simliklar yoki tabiatdan foydalanishda yoki landshaft uchun alohida qiymatga ega o'simliklar uchun xavf

tug'dirgan shaxs 5 yilgacha muddatga ozodlik mahrum qilish yoki pul jarimasi bilan jazolanadi. Tajovuz jazosiz qolmaydi".

Ta'kidlash joizki, Germaniya qonunchiligida "Tabiat va landshaftda dam olish" normasi mavjud bo'lib, agar qonunchilikda boshqa tartib belgilanmagan bo'lsa (ya'ni, istisno), fuqarolar istagan joyiga kirib borish huquqiga egaligi ko'rsatilgan [8].

O'zbekiston Respublikasida mavjud alohida qonun sifatida belgilangan hujjat Germaniyada ham O'simliklarni muhofaza qilishga oid Fedaeral qonun qabul qilingan. Mazkur qonun 46 moddani birlashtirgan 10 bobdan iborat. Ushbu qonunda pestitsidlar va agrokimyo vositalaridan foydalanish masalalarini ham tartibga soladi. Bizning davlatimizda esa bu munosabatlar alohida "O'simliklar karantini to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinganligi bilan farqlanadi.

Qonunning umumiy qoidalarda bir qancha tushunchalarga ta'rif beradi. Jumladan, o'simliklarni muhofaza qilish bobi mavjud bo'lib, o'simliklarni himoya qilish, jumladan, zararli organizmlarni olib kirishga qarshi choralar shakllantirilgan. E'tibor berish kerakki, favqulotda vaziyatlar, ya'ni xavf tug'ilganda, zudlik bilan harakat qilish shart holatlarda tegishli organlarning roziligini olmasdan va boshqa idoralar bilan kelishmasdan muxim va alohida qarorlar qabul qilish huquqiga ega ekani qayd etilgan.

O'simliklarni himoya qilish vositalarini qo'llashda o'simliklarni himoya qilish vositalarini ro'yxatdan o'tkazish va tajribalarda ulardan foydalanish masalalarini tartibga solish, ruxsat olish zarurligi, shuningdek, tajribalar (sinovlar)ni amalga oshirish, ruxsat berish bosqichlari, tijorat sirini saqlash, mahsulot belgilari (markirovka) muammolari, olib chiqish va boshqa masalalarni tartibga soladi.

O'simliklarni himoya qilish uskunalari bobi orqali amaliyotga kiritish, xavfsizlikni tekshirish, uskunadan foydalanish bo'yicha tegishli yo'riqnoma ilovasining bo'lishi zarurligi va boshqa masalalar muvofiqlashtiriladi. O'simliklar o'sishini stimulyatsiya qilish vositalari bobida o'simliklarni muomalaga kiritish, xavfsizlikni tekshirish, qo'shimcha moddalardan foydalanish, shuningdek, zararni qoplash va talab huquqining o'tishi masalalariga oydinlik kiritadi. Organlar va nazorat bobida qishloq va o'rmon xo'jaligi bo'yicha Federal biologik xizmati va mahalliy sub'ekt organlarining vakolatlari, doiraviy kelishuvlar, bojxona xizmati ko'magi belgilangan. Qonunining 9-bobi ma'lumotlar yetkazish, ma'muriy va jinoiy me'yorlarga bag'ishlangan.

Germaniya qonunchiligining bunday tarzda shakllanishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, huquqshunos olimi D.Shibulka "Ekologik taraqqiyot sari yo'l: Germaniyaning ekologik maqsadlari va harakat manzillari" asarida (Bonn, 1996 y.) [9] Qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlari tasnifini keltiradi va vaziyat doimo ham shunday bo'lmaganini, Sharqiy Germaniyadagi 500 dan ortiq o'simlik guruhlari xavf ostida ekani, antropogen o'simliklar jamoalarining ulushi sanoatlashtirish davridan oldin ham katta bo'lganini ta'kidlaydi. Bu esa bioxilma-xillikning yo'qolib borishiga faqatgina qishloq xo'jaligi aybdor emasligini anglatadi. Qishloq xo'jaligi faoliyatining ikki turini farqlash kerak: birinchisi – an'anaviy qishloq xo'jaligi faoliyati – haydash (shudgorlash), ekish; ikkinchisi – zamonaviy qishloq xo'jaligi bo'lib, uni tom (ana'aviy) ma'noda qishloq xo'jaligi faoliyati deb ham bo'lmaydi, chunki aksariyat holatlarda uning tuproqqa umuman aloqadorligi yo'q, zero, yangi texnologiyalar bo'yicha ko'plab mahsulotlar sun'iy muhitda, tabiatdan ajratilgan holda yetishtiriladi. Shundan kelib chiqib, ikkinchi turini sanoat faoliyati deb atash to'g'risida o'ylab ko'rsa bo'ladi.

O‘simlik dunyosidan foydalanishda uning muhofaza qilinishi tamoyiliga amla qilinishi muhimdir. Bunda ruxsat berish tartibi juda katta ahamiyatga ega. Masalan, Germaniyada “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, mahalliy o‘simlik va hayvonot dunyosi uchun xavf tug‘ilishi yoki har-xil turlar populyatsiyasiga zarar yetishi ehtimoli bor holatlarda ruxsatnoma berilmaydi. Bu tartib shu jihati bilan bioxilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiyadan ilgarilab ketgan. U uch turdagi bioxilma-xillik darajasini qamrab oladi va profilaktika tamoyillarini amalga oshirish namunasi bo‘lib xizmat qiladi: 1) ekotizimlar va yashash sharoitlari; 2) turlar va hamjamiyatlar; 3) genomlar va genlar [10].

Germaniya qonunchiligining aksariyat me‘yorlari kabi bu hujjat ham biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiyadan avval qabul qilinganligini inobatga oladigan bo‘lsak, amaliyotga joriy etilganlik holati ham uning natijadorligini ko‘rsatadi.

Tahlil etilgan o‘simlik dunyosiga oid munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan Germaniya qonunchiligidan ko‘rishimiz mumkinki, amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasidagi o‘simlik dunyosiga bevosita va bilvosita daxldor bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni, jumladan, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi, “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlardagi moddalarni huquqiy inventarizatsiya qilish va optimallashtirishni taqozo etadi. Zero Germaniya qonunchiligida o‘simlik dunyosi oid munosabatlar bitta Federal qonun orqali yagona ob‘ekt sifatida tizimli ravishda tartibga solingan. Shu jihatlarni inobatga olib muhofaza qilinadigan ob‘ektlar ro‘yxatini kengaytirish, o‘simliklarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiyalar qoidalarini modernizatsiya qilish, o‘simlik dunyosi ob‘ektlariga tajovuz qilganlik uchun belgilangan jinoiy-huquqiy va ma‘muriy-huquqiy ta‘qiqlar va sanksiyalarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/1472>.
2. Халмуминов Ж.Т., Файзиев М.М., Безбородов Ю.Г. Экологическая функция государства // Научный мир Казахстана. – Алматы, 2006. – №2. – С. 90–98.
3. Файзиев Ш.Х. Теоретические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан. Монография / Под ред. М.Х. Рустамбаева, М.Б. Усманова. – Ташкент: ТГЮИ, 2004. – С. 45.
4. STGB. 42 Aufl., MUnchen: Beck, 2007.
5. Rus tilida nashr qilingan xorijiy davlatlarning jinoyat kodekslari ro‘yxatiga qarang.: Уголовное право. Библиография (1985-2006 годы) / Под ред. А.Э. Жалинского. М.: Городец, 2007. – С. 560–564.
6. Xorijiy mamlakatlarning jinoyat to‘g‘risidagi qonunchiligida o‘tkazilgan islohotlar yo‘nalishlari to‘g‘risida batafsil ma‘mulot olish uchun qarang: Дубовик О.Л. Уголовно-правовая охрана окружающей среды в ФРГ // Экологическое право и рынок / Под ред. М.М. Бринчука, О.Л. Дубовик. М.: ИНИОН – ИГЛ РАН, 1994. – С. 229–236; Она же. Реформа законодательства об ответственности за экологические преступления в России и за рубежом И в кн.: Экологическое право России. Сборник материалов научно-практических конференций. Юбилейный выпуск 1995-2004 гг / Под ред. А.К. Голиченкова. М.: ТИССО, 2004. В 3 томах. Т.2. – С. 195–198; Карху О.С. Анализ уголовного законодательства в сфере экологической информации в зарубежных странах И Там же. С. 310-315; Кузнецова О.Н. Уголовная

ответственность за загрязнение атмосферы по законодательству зарубежных государств // Там же. С.329-331; Радчик О.Л. Уголовная ответственность за преступления в области обращения с опасными веществами и отходами по законодательству зарубежных государств и там же. С.349-351; Радецкий В. Развитие уголовно-экологического права в Польше с учетом требований Европейской конвенции об охране окружающей среды уголовным правом // Государство и право. 2002. № 10. С.48-56; Шунеманн Б. Уголовное законодательство в постмодернистском обществе, принципы, касающиеся экологического права (примере ФРГ и США) // Экологическое право. 2003. – № 2. – С. 48–54.

7. Доронин Г.Г. Состав экологического преступления по германскому праву и современное экологическое право в России и за рубежом. – С. 146–152.

8. Federatsiya va sub'ektlar o'rtasidagi huquqiy vakolatlarning taqsimlanishi to'g'risida o'qing: Жалинский А.А., Рёрихт А.А. Введение в немецкое право. М.: Спарк, 2002–2006-yilda Germaniyada federalizm islohoti o'tkazildi va YI tomonidan qo'yilgan va yerlarning (Sub'ektlarning) atrof-muxitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik vakolatlarini qisqartirishga qaratilgan talablariga ko'ra, vakolatlarni qayta taqsimlash masalalariga ham daxldor bo'ldi.

9. Czybulka D. Erhaltung der Biodiversitat bei der landwirtschaftlihen Nutzung // 10 Jahren Ubereinkommen Uber die biologische Vielfalt S. 154. Doyle U. 1st die rechtliche Regulierung gebitsfremgen Organismen in Deutschland ausreichend? // Neobiota. Berlin. Band 1. 2002. S. 284.

10. Yevropa ekologik qonunchiligida katta ahamiyat beriladigan profilaktika tamoyili to'g'risida qarang: Дубовик О.Л., Кремер Л., Люббе-Вольфф Г. Экологическое право. М.: ЭКСМО, 2005; Кремер Л., Винтер Г. Экологическое право Европейского Союза. М.: Городец, 2007; Степаненко В.С. Правовые основы экологической политики Европейского Союза: цели, принципы, действия. М.: Изд-во НИФ-Природа, РЭФИА, 2004 ва б.